

## MUALLIM KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK ASOSLARI.

*Mamasoliyev Rustamjon FarDU*

**Annotatsiya.** Konseptologik yondashuvda inson “an’anaviy ravishda anglangan tushunchalar, tasvirlar, xatti-harakatlar stereotiplari va boshqalar mavjud bo‘lgan konseptlar dunyosida yashaydi, muloqot qiladi, fikrlaydi, ularning shaxsiy, proyektiv, qisqartirilgan shakllari sifatida amalda bo‘ladi”.

**Kalit so‘zlar:** murabbiy, ustoz, bilim, fikr, mushohada.

**Аннотация:** В концептологическом подходе человек «живет, общается, мыслит в мире понятий, где существуют традиционно понимаемые понятия, образы, поведенческие стереотипы и т. д., и выступает как их личностные, проективные, редуцированные формы.

**Ключевые слова:** тренер, наставник, знания, мнение, наблюдение.

**Annotation:** In the conceptological approach, a person "lives, communicates, thinks in the world of concepts, where there are traditionally understood concepts, images, behavioral stereotypes, etc., and acts as their personal, projective, reduced forms.

**Key words:** coach, mentor, knowledge, opinion, observation.

Konseptologik yondashuvda inson “an’anaviy ravishda anglangan tushunchalar, tasvirlar, xatti-harakatlar stereotiplari va boshqalar mavjud bo‘lgan konseptlar dunyosida yashaydi, muloqot qiladi, fikrlaydi, ularning shaxsiy, proyektiv, qisqartirilgan shakllari sifatida amalda bo‘ladi” .

Y.S.Kubryakovaning fikricha konseptlar – maxsus aqliy shakllanishlar tufayli insonda dunyoning konseptual tasviri, ya’ni dunyo haqidagi g‘oyalar tizimi, shu jumladan, og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan (verbal va noverbal) tarkibiy qismlarda shakllanadi. “Konseptlar dunyo haqidagi bilimlarni saqlashga imkon beradi va jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan ma’lum toifalar va sinflar bo‘yicha ma’lumotlarni saqlash orqali obyektiv tajribani qayta ishlashga hissa qo‘shadigan konseptual tizimning tarkibiy elementlariga aylanadi” .

Konseptual tahlil bilan shug‘ullanayotganligini aniq ta’kidlagan turli mualliflarning asarlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, konseptual tahlil hech qanday holatda konseptlarni tushuntirishning ma’lum bir usuli (uslubi, texnikasi) emas. Tegishli ishlar nisbatan umumiy maqsad bilan birlashtirilgan, unga erishish yo‘llariga kelsak, ular umuman boshqacha bo‘lib chiqadi, desak to‘g‘riroq bo‘ladi. Shuni ta’kidlash kerakki, sezilarli farqlar nafaqat tadqiqot usullari arsenalida (ya’ni, tahlil deb hisoblanadigan narsada), balki birinchi navbatda ma’lum ishlarda natija deb hisoblanadigan narsada mavjuddir. XXI asr – yuksak intellektual salohiyatli, zamonaviy bilim va malakaga ega, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrli mutaxassislar asri. Bunday avlodni tarbiyalashda ustoz-murabbiylarning xizmati beqiyos. O‘qituvchi, murabbiy, ustoz. Barchamizning qalbimizga yaqin bo‘lgan oddiygina bu so‘zlar zamirida katta ma’no va mazmun mujassam. Zero, har qaysi inson o‘qituvchining qo‘lida savod chiqaradi, murabbiy va ustozdan ta’lim oladi, tarbiya topadi. Bugun biz biron kasbni egallab, Vatan va el koriga yarayotgan ekanmiz, avvalo, ulardan minnatdor bo‘lmog‘imiz tabiiy, albatta. Ma’lumki, mamlakatimiz oldida turgan eng muhim maqsad-vazifa: taraqqiy topgan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz uchun erkin va farovon hayot qurishdan iborat. Ana shunday sharafli vazifani uddalaydigan ishonchli, kuchli, o‘z bilimi va iste’dodiga suyanan, hech kimdan kam bo‘lmagan, jamiyat hayotiga dadil kirib borayotgan navqiron avlodni esa ustozlar tarbiyalab yetishtirmoqda. Y.Stepanov muallim konseptini insonning ruhiy olamida so‘z bilan birga bo‘lgan tasavvurlar, tushunchalar, assotsiatsiyalar, kechinmalar “to‘plami” shaklida izohlagan. Konsept nafaqat fikrlash, balki kechinmadir. Ular hissiyotlar, simpatiya, antipatiya va ba’zan to‘qnashuvlar mavzusidir. Konsept inson ruhiy olamidagi madaniyatning asosiy birligidir .

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Золотарева И.Б. Лексико-семантические средства выражения этико-эстетических концептов в художественном тексте (на материале стихотворений и художественной прозы В.С. Соловьева): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2006. – 17 с.
2. Зыкова С.А. Специфика реализации концепта "мужественность" в языковой картине мира: на материале русского и испанского языков: Дисс. ... канд. филолог. наук. – Нижневартовск, 2020. –240 с.
3. Зыкова, С.А. Способы выражения доминирующей маскулинности в лексическом фонде испанского языка // Вестн. ТГУ. – Тамбов, 2009. № 1. –С. 25–29. URL: <http://sun.tsu.ru/mminfo/000063105/318/image/318-025.pdf>. Издательство Молодой ученый, 2011. – С. 85-87.
4. Кабирова Г.У. Оценка как языковой концепт // Актуальные вопросы филологических наук: материалы Междунар. науч. конф. – Чита: